



SURXON DAVLAT QO`RIQXONASIDA UCHROVCHI KAMYOB VA MUHOFAZAGA OLINGAN YIRTIQICH QUSHLAR VA ULARNING MUHOFAZASI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19408626>

Mamatqulov M.M

Murtazayev U.T

Boymamatov B.I

¹Surxon davlat qo`riqxonasi Ilmiy ishlar va ekologik ma`rifat bo`yicha direktor o`rinbosari, mamatqulovmuxiddin9@gmail.com;

²Surxon davlat qo`riqxonasi katta ilmiy hodimi, zorovon2024@gmail.com

³Surxon davlat qo`riqxonasi katta ilmiy hodimi, boymamatovbobur96@gmail.com

Annotation : *The article analyzes the status of rare birds of prey in the Surkhan State Reserve. It focuses on biodiversity conservation, modern monitoring methods, and anthropogenic impact mitigation. The research findings contribute to solving zoological problems and developing sustainable nature management strategies within protected natural areas.*

I. KIRISH (INTRODUCTION)

Bugungi kunda global iqlim o`zgarishi va antropogen bosimning ortishi natijasida ko`plab tabiiy ekotizimlar inqirozga yuz tutmoqda. Bu jarayonda ekologik zanjirning yuqori bo`g`inini egallagan yirtqich qushlar populyatsiyasining kamayishi alohida xavotir uyg`otmoqda. Surxon davlat qo`riqxonasi o`zining turfa xil landshaftlari va baland tog` ekotizimlari bilan Markaziy Osiyodagi ko`plab noyob va yo`qolib borayotgan yirtqich qushlar uchun muhim hayotiy maskan hisoblanadi

II. Tadqiqot metodlari (Methods)

Zoologiya fanining bugungi kundagi dolzarb muammolaridan biri global iqlim

o`zgarishi va antropogen bosim sharoitida kamyob hayvon turlari, xususan, yirtqich qushlar populyatsiyasini saqlab qolishdir. Surxon davlat qo`riqxonasi o`zining turli xil landshaftlari-baland tog` ekotizimlarigacha (Ko`hitang) bo`lgan hududlarni qamrab olganligi sababli, ornitofauna genofondini saqlashda muhim ahamiyatga ega. Surxon davlat qo`riqxonasi dengiz sathidan 850 metrdan 3137 metrgacha balandlikdagi hududni o`z ichiga oladi va Kuhitang tizmasining sharqiy yon bag`irlarida joylashgan.

Yirtqich qushlar populyatsiyasini o`rganishda quyidagi zamonaviy va an`anaviy ornitologik tadqiqot usullardan foydalaniladi (1)

Vizual kuzatuv: Maxsus tanlangan stasionar nuqtalardan durbin va



podzorniy truba yordamida qushlarning uchishi, uyalashi va ozuqa izlash harakatlari kuzatildi.

Transekt usuli: Belgilangan yo'nalishlar va marshrutlar bo'ylab harakatlanib, qushlarning turi va sonini qayd etildi.

Foto va video monitoring: Qushlar tez-tez uchraydigan va suv ichish joylariga fotoqopqonlar o'rnatish orqali ularning hayot tarzi o'rganildi.

Tadqiqotlar davomida quyidagi noyob yirtqich qushlar populyatsiyasi alohida o'rganildi:

Qo'riqxonada hududida O'zbekiston Respublikasi "Qizil kitobi"ga kiritilgan bir necha turdagi yirtqich qushlar muqim yashaydi va migratsiya davrida uchraydi. "Surxon" davlat qo'riqxonasida uchrovchi kamyob turlar xilma-xilligi haqida quyidagi jadvalida keltirilgan

"Surxon" davlat qo'riqxonasida mavjud kamyob yirtqich qush turlari

1-jadval

№	<i>Turning ilmiy nomi</i>	<i>Turning davlat tilidagi nomi</i>	<i>Tabiatni muhofaza qilish maqomi</i>
1	Hieraaetus pennatus (Gmelin, 1788)	Pakana burgut, kichik burgut	Kamyob, 2(VU:D)
2	Aquila chrysaetos (Linnaeus, 1758)	Burgut	Kamyob, 2(VU:R)
3	Gypaetus barbatus(Linnaeus, 1758)	Boltayutar	Kamyob,2(VU.R)
4	Aegyptius monachus (Linnaeus, 1766)	Tasqara	Kamyob, 3(NT)
5	Gyps fulvus (Hablizl, 1783)	Oq boshli qumoy	Kamyob, 3(NT)
6	Milvus migrans (Boddaert, 1783)	Qora kalxat	Mavsumiy, SITES II
7	Circaetus gallicus(Gmelin, 1788)	Ilonxo'r burgut	Kamyob, 2(VU.R)
8	Falco cherrug J.E. Gray, 1834	Itolg'i	Kamyob, 3(NT)
9	Falco subbuteo Linnaeus, 1758	Jig'oltoy	Mavsumiy, SITES II
10	Falco naumanni Fleischer, 1818	Kuyka (cho'l miqqiysi)	Kamyob, 3(NT)
11	Falso peregrinoides Temminck, 1829	Sahro lochini	Kamyob, 3(NT)



III. NATIJALAR (RESULTS)

Tasqara: Ko'hitang tizmasining (dengiz sathidan 500-2500 m) balandliklaridagi qoyali hududlarda yashaydi hamda in qo'yadi. Tasqara – yirtqich qushlar turkumi qiyg'irlar oilasi vakili. Yirik o'limtikxo'r qushlardan. 2017 yil bahorgi sanoq natijalariga ko'ra 8 boshni, 2021 yil 23 boshni tashkil etgan bo'lsa 2025 yil bahorgi sanoq natijalariga ko'ra 44 boshga etganligi monitoring natijalarida aniqlangan. Kuzatuv natijalariga ko'ra Surxon davlat qo'riqxonasining barcha bo'limlarida uchratilgan.

Boltayutar: Ko'hitang tizmasining (dengiz sathidan 1000-4300 m) balandliklaridagi qoyali hududlarda yashaydi. Uyasini qoyalar quradi. Dekabr–yanvarda 1–2 ta tuxum qo'yadi. O'limtiklar bilan oziqlanadi.

Surxon davlat qo'riqxonasida har yilgi o'tkaziladigan sanoq natijalari dinamikasiga etibor beradigan bo'lsak 2017 yil bahorgi sanoq natijalariga ko'ra 19 boshni, 2021 yil 55 boshni tashkil etgan bo'lsa 2025 yil bahorgi sanoq natijalariga ko'ra 57 boshga etganligi monitoring natijalarida aniqlangan bo'lib hududning barcha bo'limlarida uchratilgan. Bu tur ekotizimda sanitar vazifasini bajarib, yuqumli kasalliklar tarqalishining oldini oladi (2).

Oq boshli qumoy: Ko'hitangni baland cho'qqilarida yashaydi. O'zbekistondagi yirik yirtqich – o'limtikxo'r qushlar hisoblanadi. Ularning populyatsiyasi bevosita yovvoyi tuyoqlilar (morxo'r, buxoro qo'yi) soniga

bog'liq (2). Surxon davlat qo'riqxonasida har yilgi o'tkaziladigan sanoq natijalariga ko'ra 2017 yil bahorgi sanoq natijalarida 60 boshni, 2021 yil 87 boshni tashkil etgan bo'lsa 2025 yil bahorgi sanoq natijalariga ko'ra 138 boshga etganligi monitoring natijalarida aniqlangan bo'lib, hududning barcha bo'limlarida uchratilgan.

Burgut: Tog'ning odam yashamaydigan uzoq joylarida, qoyalar orasida, archazorlarda uchraydi. Odatda, bir-biriga yaqin 2-3 uyasi bo'lib, bittasidan foydalanadi.

Qo'riqxonaning Xatak bo'limi Bog'lidara massivi Olma buloq soyi atrofidagi qoyalarda qo'riqxonada ilmiy hodimlari tomonidan olib borilgan kuzatuvlar natijasida ushbu tur vakillarining yashash tari o'rganilganda inlarda 1 ta ba'zi inlarda 2 tagacha tuxum qo'yish holatlari kuzatilgan. Burgut kichik qushlar, kaklik, yumronqoziq, toshbaqa, quyon va boshqa hayvonlar bilan oziqlanadi (3).

Surxon davlat qo'riqxonasida har yilgi o'tkaziladigan sanoq natijalari ko'ra 2017 yil bahorgi sanoq natijalariga ko'ra 24 boshni, 2021 yil 45 boshni tashkil etgan bo'lsa 2025 yil bahorgi sanoq natijalariga ko'ra 61 boshga etganligi monitoring natijalarida aniqlangan va qo'riqxonada hududning barcha bo'limlarida uchratilgan.

Itolg'i: Qoyatoshlarda in quradi fevral-mart oylarida 3-5 ta tuxum qo'yadi va 28 kun davomida bosib yotadi. Polaponlari may-iyun oylarida ucha



boshlaydi. Kemiruvchilar bilan oziqlanib, qishloq xo'jaligiga foyda keltiradi (5).

Surxon davlat qo'riqxonasining hayvonot dunyosini vakillarini sanoqdan o'tkazish ro'yxatiga 2021 kiritilib huddi shu yili 12 boshni kuzatilgan bo'lsa 2025 yil bahorgi sanoq natijalariga ko'ra 24 boshga etganligi monitoring natijalarida aniqlangan. Ushbu tur qo'riqxonada hududining barcha bo'limlarida uchratilgan.

Mallabosh lochin- O'ta chaqqon va noyob yirtqich qush asosan past tog'lar, qir-adirlar va tik qoyali jarliklarda yashaydi. U tashqi ko'rinishi va ov qilish uslubi bilan mashhur bo'lib, oddiy lochinga (sapsan) juda o'xshash, biroq undan bir oz kichikroq. Eng asosiy farqi — uning ensasidagi va peshonasidagi malla (qizg'ish-jigarrang) dog'idir. Tanasining ustki qismi och kulrang-moviy, ostki qismi esa och sarg'ish-oq bo'lib, ko'krigida mayda xollar mavjudligi turning asosiy belgilari hisoblanadi. Asosan uchib ketayotgan mayda va o'rta hajmdagi qushlarni (kabutar, dehqonchumchuq, to'rg'ay va h.z) havoning o'zida tutib ov qiladi. Ba'zan kemiruvchilar va kaltakesaklar bilan ham oziqlanadi. Mart oyida in quradi. Tuxumini (odatda 2–4 ta) bevosita qoyalardagi kovaklarga yoki boshqa qushlarning tashlandiq uyalariga qo'yadi. Poloponlari iyun oyi oxirida ucha boshlaydi. (2)

O'tkazilgan sanoq natijalariga ko'ra ushbu tur vakillarining, 2021 yil 6 boshni tashkil etgan bo'lsa 2025 yil bahorgi sanoq natijalariga ko'ra 20 boshga

etganligi monitoring natijalarida aniqlangan hududning diyarli barcha bo'limlarida uchratilgan.

Surxon davlat qo'riqxonasi O'zbekistonning janubiy hududidagi eng boy bioxilma-xillikka ega maskanlardan biri bo'lib, u erda kuyka (cho'l miqqiysi), jig'oltoy, qora kalxat, ilonxo'r burgut va kichik burgut kabi yirtqich qushlar qo'riqxonaning turli landshaftlarida Ko'hitang tizmasining baland tog'li hududlarigacha bo'lgan joylarda uchraydi.

Turlarning barchasi ochiq kengliklarda ov qilishga va baland qoyalar yoki yirik daraxtlarda uya in qurishga moslashgan turlardir. Masalan, kuyka va ilonxo'r ko'proq ochiq pasttekislik va adirlarni afzal ko'rsa, kichik burgut va jig'oltoy tog'li hududlardagi o'rmonli va qoyali joylarda faol harakat qiladi.

Turlarni saqlab qolishda qo'riqxonalarining o'rni beqiyosdir. Qo'riqxonalar nafaqat qushlar uchun xavfsiz "uyalash hududi", balki ularning tabiiy genofondini saqlab qoladigan yagona ishonchli qo'rg'on hamda tabiiy erkin yashash muhit hamdir.

Yirtqich qushlarni kelajak avlodlarga tabiiy meros sifatida etkazish uchun quyidagi choralarni amalga oshirish hayotiy zaruriyatdir:

Mavjud alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar maydonini yanada kengaytirish va ularni o'zaro bog'lovchi "ekologik koridorlar" tashkil etish hamda hududiy yaxlitlikni mustahkamlash: mahalliy aholi o'rtasida yirtqich



qushlarning tabiatdagi sanitarlik rolini tushuntirish choralari ko`rish kabi ekologik targ`ibot ishlarini muntazam amalga oshirish zarur.

Dunyo miqyosida qush turlarining jumladan respublikamiz ham kamayishi kuzatilayotgan bir davrda muhofaza etiladigan tabiiy hududlarda jumladan Surxon davlat qo`riqxonasi hududida ushbu turlarning saqlanib qolish hamda ko`payishining asosiy omillari sifatida antropogen bosimning yo`qligi, tabiiy ozuqa zanjirining butunligi, xavfsiz uyalash joylarining mavjudligi kabi bir qator sabablarni keltirish mumkin

Xulosa qilib aytganda, bu yopiq ekotizimning samaradorligi va qat'iy muhofaza rejimining bevosita natijasidir.

Dunyoda qushlar yashash joylarining qisqarishi va ozuqa manbalarining zaharlanishi yoki oziqa zanjirining buzilishi tufayli kamayayotgan bir paytda, qo`riqxonalar ushbu turlar uchun tabiiy bank vazifasini o`tamoqda.

Qushlar sonining oshishi hududda biologik muvozanat tiklanayotganidan va muhofaza ishlari to`g`ri yo`lga qo`yilganidan dalolat beradi. Bu esa mazkur hududning nafaqat respublika, balki xalqaro (TMXI, CITES) ahamiyatga ega ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Yirtqich qushlarni muhofaza qilish — bu shunchaki bir turning saqlanishi emas, balki butun tabiat muvozanatini va insoniyatning kelajakdagi ekologik xavfsizligini ta'minlash demakdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI :

1. Кашкаров Р.Д., Митропольская Ю.О., Грицына М.А., Тен А.Г., Абдураупов Т.В. Фауна и система мониторинга позвоночных животных Ташкентской области. Комплект информационно-методических материалов для природопользователей. в IV частях. – Ташкент: Фан, 2020. – 503 с.

2. Ўзбекистон Республикасининг Қизил китоби: II жилд. *Науvonlar*. – Toshkent: Chinor ENK, 2019. – 392 b.

3. Лановенко Е.Н. Птицы Сурханского государственного заповедника и их современное состояние // Зоологические проблемы Узбекистана. – Ташкент, 2021. – С. 45-52.

4. Р.Н. Мекленбурсев, А.К. Сагитов, Д.Ю. "Ўзбекистон қушлари" (Птицы Узбекистана) кўп жилдлик фундаментал асари. Хусусан, 1-жилд (Тошкент: «Фан», 1987)

THE NECESSITY AND TASKS OF STATE MANAGEMENT OF THE ECONOMY

<https://doi.org/>

Rasulov Otavullakhon Abdulakhadovich

Governor of Altinkul district of Andijan region, Uzbekistan